# XORAZM VILOYATI
# STATISTIKA BOSHQARMASI



2023-yil

# 2023- yilning yanvar oyi uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

**Joriy yilning yanvar oyida Xorazm viloyatida jami 163,7 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 54,3 % ni tashkil etdi.**



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.

***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlari hajmi bu — o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



Joriy yilning yanvar oyida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **10,9** mlrd so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **3,2 marta ko‘p** bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **2,7 marta** ko‘paydi va **6,6 %** ni tashkil etdi**.**



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da




**O‘SISH SUR’ATI 54,3 %**

2022- yil yanvar
2023- yil yanvar

***Ma’lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***48,0*** *% yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan* ***5,3*** *marta* ***),*** *Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***7,2*** *% yoki 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan* ***50,6*** *marta****)*** *va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***12,5 %*** *yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan* ***1,6*** *marta) hissasiga to‘g‘ri keldi.*

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023- yilning yanvar oyiga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,7 %i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning yanvar oyidagi ko‘rsatkichiga nisbatan 17,7 % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 40,5 % ni tashkil etgan holda 87,9 mlrd so‘m miqdorida bajarildi.



### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi %da




*Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Yangibozor tumaniga (4,9 mlrd so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 69,3 %) va Urganch shahriga (28,6 mlrd so‘m yoki 55,1 %) to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **9,3** mlrd so‘mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **154,4** mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,7 %** va **94,3 %** ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





# 2023- yilning yanvar oyida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd so‘m | ulushi % da | mlrd so‘m | ulushi % da |
| **Xorazm viloyati** | **163,7** | **9,3** | **5,7** | **154,4** | **94,3** |
| **Urganch sh.** | 43,7 | 4,9 | 7,4 | 41,5 | 95,1 |
| **Xiva sh.** | 9,6 | 8,6 | 6,9 | 8,8 | 91,4 |
| **tumanlar:** | | | | | |
| **Bog‘ot** | 7,4 | 0,0 | 0,0 | | 100,0 |
| **Gurlan** | 6,5 | 13,3 | 7,8 | 7,4 | 86,7 |
| **Qo‘shko‘pir** | 14,6 | 5,8 | 6,7 | 5,6 | 94,2 |
| **Urganch** | 9,4 | 0,0 | 0,0 | 13,8 | 100,0 |
| **Hazorasp** | 11,9 | 6,8 | 5,7 | 9,4 | 93,2 |
| **Tuproqqal’a** | 4,0 | 24,5 | 14,5 | 11,1 | 75,5 |
| **Xonqa** | 14,0 | 4,5 | 4,0 | 3,0 | 95,5 |
| **Xiva** | 13,2 | 0,0 | 0,0 | 13,4 | 100,0 |
| **Shovot** | 7,4 | 12,2 | 9,0 | 13,2 | 87,8 |
| **Yangiariq** | 9,0 | 9,5 | 8,9 | 6,5 | 90,5 |
| **Yangibozor** | 12,9 | 3,5 | 4,5 | 8,1 | 96,5 |

# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar oyi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **76,3** % yoki **125,0** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **7,7** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **70,8** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **57,6** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **65.5** % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **59,7** mlrd so'mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **92,0** % ni tashkil etdi.



# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

*ulushi, % da*




***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar

| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashti-rilgan qurilish ishlari |
| **Xorazm viloyati** | **163,7** | **114,7** | **41,3** | **7,7** |
| **Urganch sh.** | 43,7 | 27,5 | 14,1 | 2,1 |
| **Xiva sh.** | 9,6 | 4,8 | 4,8 | 0,1 |
| **tumanlar:** | | | | |
| **Bog‘ot** | 7,4 | 5,5 | 1,5 | 0,4 |
| **Gurlan** | 6,5 | 4,3 | 0,9 | 1,3 |
| **Qo‘shko‘pir** | 14,6 | 12,1 | 2,4 | 0,1 |
| **Urganch** | 9,4 | 5,6 | 2,3 | 1,5 |
| **Hazorasp** | 11,9 | 10,2 | 1,4 | 0,3 |
| **Tuproqqal’a** | 4,0 | 2,7 | 1,2 | 0,2 |
| **Xonqa** | 14,0 | 11,0 | 2,5 | 0,5 |
| **Xiva** | 13,2 | 8,6 | 4,2 | 0,5 |
| **Shovot** | 7,4 | 6,0 | 1,0 | 0,4 |
| **Yangiariq** | 9,0 | 7,7 | 1,2 | 0,1 |
| **Yangibozor** | 12,9 | 8,6 | 4,1 | 0,2 |

## 2023- yilning yanvar oylarida hududlar kesimidagi qurilish ishlari

*mlrd so‘m*






***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Urganch shahri (28,6 mlrd so‘m), Qo‘shko‘pir (8,9 mlrd so‘m), Hazorasp (6,3 mlrd so‘m) hamda Yangibozor tumanlariga (4,9 mlrd so‘m) to‘g‘ri keladi.*

Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)*224-65-22*